

Ahmad Yassaviy asarlari - pedagogik g'oyalar manbayi

Elnur Dilmurod o'g'li To'lashev
Madina Uyg'un qizi Tursunpo'latova
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasavvuf ilmining yorqin namoyondasi, o'zbek mumtoz adabiyotining vakili Ahmad Yassaviyning pedagogik qarashlari, tasavvuf ilmi hamda yassaviya ta'limoti haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Yassaviya, tasavvuf ilmi, Ahmad Yassaviy, Payg'ambar, ma'naviyat

Ahmad Yassavi's works are a source of pedagogical ideas

Elnur Dilmurod o'glu Tulashev
Madina Uygun kizi Tursunpolatova
Tashkent State University named after Alisher Navoi

Abstract: This article talks about the pedagogical views of Ahmad Yassavi, a bright manifestation of Sufism, a representative of Uzbek classic literature, Sufism and Yassavi's teachings.

Keywords: Yassawiya, mysticism, Ahmed Yassawi, Prophet, spirituality

Turkiy shoirlarning eng namoyonda vakillaridan biri Ahmad Yassaviy hisoblanadi. Ahmad Yassaviy haqida ma'lumot ko'p emas. Shoir Yassi yaqinidagi Sayram shahrida tug'ilgan. Ahmad Yassaviy tasavvuf ilmini shu darajada mukammal egallaydiki, el ichida "Madinada Muhammad, Turkistonda Xo'ja Ahmad" degan gap paydo bo'ladi. Ahmad Yassaviyning ilmi, bilimi yuksakligida Amir Temur ham unga qattiq hurmat bilan qarab, har ishida uning ruhidan madad so'ragan. Amir Temur unga hurmati cheksizligidan uning qabri o'rniga muhtasham maqbara qurdirgan. Ahmad Yassaviy tasavvuf ilmida ijod qilgan insonlardan biri sanaladi. Ahmad Yassaviyning barcha yozgan kitoblari, asarlarining barchasi pedagogikaga borib taqaladi.

Pedagogika - ta'lim tarbiya va ilmlar majmuidir. Ya'ni Ahmad Yassaviy necha ming yillar oldin yashab ijod qilgan bo'lsa-da, lekin o'sha davrda yozgan barcha fikrlari, ma'lumotlari hozirgi kunda bo'layotgan hodisalarga, insonlarning yurish-turishlariga nisbatan g'oyalarini aytgandek tuyuladi. Har bir allomalarimiz, olimlarimiz, shoir va mutafakkirlarimiz yozgan asarlarida bizga ta'kidlamoqchi bo'lgan so'zlarida go'yoki hozirgi davrga nisbatan ma'lumot bergandek, holat va

hodisalarni bilgandek deb o'ylashimiz tabiiy holdir. Ahmad Yassaviyning yaratgan "Devoni hikmat" asari izdoshlari, shogirdlari tomonidan tartib berilgan. Ahmad Yassaviy asarlari yashayotgan vaqtlarida aynan bu shoirimiz emas mustaqillikkacha, Sovet davrida yashab ijod qilgan bobolarimizni asarlari ham nashr etishga yo'l qo'yilmagan. Ya'ni ularning kitoblarida ilmlar, bilimlar o'zlarining aqlli fikrlarini berib o'tgan. Bu pedagogik g'oyalar insonning ongini rivojlanishiga turtki beradi deb o'ylagan va shunday fikrlagan. Hattoki insonlarning ongini zaharlashmaslik, hayollarni aynitmaslik uchun yetuk fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan shoirlarimiz, bobolarimizni qiynashgan. Mustaqillikka erishgandan so'ng o'zimizning erkin huquqlarimizga ega bo'lgandan keyin yassaviyshunoslikda yangi davr boshlandi.

Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" kitobidagi hikmatlar Qur'oni karim va payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom hadislariga tayangan holda yozilgan. Shuning uchun ham Ahmad Yassaviyning bu kitobi axloqiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini, hikmatlar ostida ko'p ma'no yotganini bilishimiz mumkin.

Ma'lumot tariqasida shuni aytish lozimki, Ahmad Yassaviy hikmatlari Allohning kalomi hisoblangan Qur'oni karimdagi oyatlardan foydanib yozilgani uchun ham insonlar bu kitobdan ko'p malumotlarni olishi, o'ziga kerakli narsalarni bilishi mumkin va hayotda tadbiq etishni ta'minlaydi. Shu sababdan ham "Devoni hikmat" asari barcha uchun kerakli va bilishi mumkin bo'lgan o'y qarashlar, fikrlar, ma'lumotlar mavjud. Ahmad Yassaviy bu kitobni mukammal darajada yozilganligi tufayli chet el olimlari tomonidan o'rganilib chiqildi. Shundan bilishimiz mumkinki, kitobdan olgan bilimlarni chet el olimlari o'zining davlatida amalga oshirishi mumkin. Bir insonning yozgan kitoblari asosida qanchadan-qancha insonlarni to'g'ri fikrlashga, yomon yo'ldan qaytishga, hayotga nisbatan munosabatini yaxshilashga undash mumkin. Qanchalik bu inson bilimga, aqlga, ilmga ega ekanligini pedagogik g'oyalarini juda mukammal darajada rivojlanganligi aytib o'tish lozimdir. Ahmad Yassaviyning asarida pedagogik g'oyalarga ko'p etibor berganligi va o'sha g'oyalarni insonlarga yetkazmoqchi bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Ahmad Yassaviy tasavvufga inson ma'naviyatini yuksaltiradigan, rivojlantiradigan omil sifatida qaraydi. Tasavvufni ruhiy tarbiya bilan chambarchas bog'laydi. Demakki, ruhiy tarbiya tasavvufning asl negizi hisoblanadi. Ruhiy tarbiya insoniyatga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi mash'aladek go'yo. To'g'ri yo'l negizida haqiqatni anglash yotadi. Haqiqatni anglagan inson o'zini, o'zligini angelaydi. Eng muhimi esa, inson o'zligini anglash uchun qalbini Yaratganga topshirishi kerak, Allohga nisbatan muhabbatga ega bo'lmog'i lozim.

Ahmad Yassaviyning hikmatlar asari asosan pand nasihat asnosida yozilgan. Bunda Ahmad Yassaviy asarlarining asosiy vazifasi insonlarni yaxshi va yomonlikni ajrata olishiga qaratilgan. Insonning nafsiga qul bo'lmasligi haqida ham takidlab o'tadi. Yani hikmatlarida asosiy tayanch fikr foniy dunyoga ishonib qilmasligidir. Ahmad

Yassaviyning asarlarida asosiy va bosh g'oya yetuk shaxsni tarbiyalashdir. Masalan inson biladigan va noto'g'ri deb o'ylaydigan narsadan qaytishi va nafsini tiya olishi mumkin. Lekin nodon, shariat ilmidan xabardor bo'lmagan, o'z fikr g'oyalariga ega bo'lmagan va kim nima desa unga ergashib ketadigan inson qayerdanam ham biladi bu gunoh ishligini. Oq va qorani ajrata olmasa, kim nima desa shuniki tug'ri bo'ladigan, o'zining ongi yetmagandan keyin jamiyatda shunaqa insonlar ko'payaveradi. Shuning uchun ham Ahmad Yassaviy hikmatlarida insonlarga o'rnak bo'lsin, o'ziga kerakli xulosalarni chiqarsin, bilmagan va eshitmagan ma'lumotlarni bilsin, o'rgansin deb Qur'oni karim kitobiga tayangan holda yozdi. Ahmad Yassaviy pedagogik g'oyalarini qanchalik kerakligini, zarurligini bilishimiz mumkin. Shu sababdan ham o'zidagi pedagogik g'oyalarini faqat o'zi bilib qolmasdan balki butun jamiyat bilishi uchun harakatda bo'ldilar. Afsuski, o'sha davrlarda erkinlik bo'lmaganda o'z huquqlaridan foydalana olmaganliklari uchun asarlari, kitoblari nashrga chiqarishga yo'l qo'ymagan. Balki, o'sha vaqtlari asarlari nashrdan chiqarilganda insonlarning hayoti tubdan o'zgarib, ajoyib yashagan bo'larmidi? deb o'ylab qolasan kishi. Nima bo'lganda ham hozirgi biz yoshlar bunday asarlardan ko'p bilim ko'nikma olmoqdamiz va o'zimizga bog'liq kerakli narsalarni bilib olishimiz mumkin. Bobolarimiz bizdan nima kutgan bo'lsa biz ham istaklarini amalga oshirishda munosib avlod bo'lishga doimo harakatdamiz.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, Ahmad Yassaviyning pedagogik g'oyalari tasavvuf ilmida, Allohga bo'lgan muhabbat, shariat yo'lidagi qarashlardan iborat ekan. Ahmad Yassaviy Yaratuvchini yodga olmoq kishi ko'nglini xotirjam qiladi, ko'nglini yumshatadi deb hisoblagan va shu fikrni ilgari surgan.

Rabbim yodi ulug' yoddur aytur bo'lsam,
Asal yanglig' suchuk bo'lur tilim mening.
O'zim faqir, qildim muqir, bo'ldim haqir,
Qanot qoqar uchar qushdek ko'nglim mening.

Aytib o'tganimizdek, yassaviya ta'limotining asosida ilohiy ishq yotadi. Ilohiy ishq esa Yaratganga bo'lgan ishonchda, shariat qonun-qoidalariga amal qilishda, Allohga nisbatan muhabbatda ko'rinadi. Ilohiy ishq har kimga ham nasib etavermaydi. Ishq egasi qalbini yomon illatlardan poklashi darkor. Bunga esa faqatgina o'ziga qarshi chiqib, nafsini boshqara olgan kishi ega bo'la oladi.

Ahmad Yassaviyning pedagogik qarashlari shularni o'z ichiga oladi. U insonni hidoyat yo'liga boshlash orqali uning ma'naviyatini yuksaltirishga asosiy masala deb qaraydi. Yassaviya tariqati insonni dunyo rohatidan kechib, o'zini Alloh yo'liga solishga, toat ibodatni kanda qilmaslikka, Alloh uchun qalbini, o'zini poklashga chorlaydi. Ahmad Yassaviyning o'zi Payg'ambar yoshiga yetgach dunyo tashvishlariga qo'l siltab, qolgan umrini uzlatda, yolg'iz, faqatgina Alloh yo'lida tavba qilish bilan o'tkazadi.

Ahmad Yassaviy fikricha, inson hech qachon mol-dunyoga, davlatga ishonib qolmaslik kerak. Mol-u davlat hamisha hammadan qolib kelgan va bu an'ana bundan keyin ham davom etadi. Shuning uchun ham u inson kamtar bo'lishi, hasadgo'ylikni yuqotishi kerakligini uqtiradi. Ahmad Yassaviyning o'zi faqirlikni afzal ko'rib, o'zini Yaratganga bahshida etib, Alloh yo'lida taqvo qilib umrini o'tkazgani bekor emas. Shu o'rinda Payg'ambarimizni quyidagi hadisi yodga tushadi: " Faqirlik fahrimdir".

Bizga ham ajdodlarimizga, Payg'ambarimizga munosib ummat bo'lib, umrimizni Allohning muhabbati yo'lida, toat- ibodat bilan, taqvo qilgan holda davom ettirish nasib qilsin!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. yassaviyning-pedagogik-qarashlari- https://fayllar.org/mavzu-ahmad_reja_tasavvuf-ta.html;
2. 10-sinf adabiyot darsligi 1-qism. Toshkent-2017.